MILLIY MEROS AKADEMIYASI
NATIONAL HERITAGE ACADEMY

MADANIYATSHUNOSLIK
VA NOMODDIY MADANIY MEROS
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

“Asliyat — asl manba, asl qadriyat, asl meros”

ASLIYAT

ILMIY AXBOROTNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

Ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy jurnal



2026

1-JILD | 1-SON

ASLIYAT
Ilmiy axborotnomasi
https://ijacaes.uz/index.php/Asliyat/index

XORAZMDA MILLIY TEATR VA MUSIQA SAN'ATI (1920–1924-yillar)

Saodat Nazarova,
Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot institututi
Madaniyatshunoslik bo'limi mudiri tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Xorazm Xalq Sovet Respublikasida 1920–1924-yillarda kechgan madaniy jarayonlar, xususan, teatr va musiqa san'atining shakllanishi va rivojlanishi tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy ko'rinishdagi teatr jamoalari, havaskorlik to'garaklari, musiqa ansambllari va madaniy-ma'rifiy muassasalarning tashkil etilishi yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Xorazm Xalq Sovet Respublikasi, teatr san'ati, musiqa san'ati, milliy madaniy an'analar, dostonchilik, xalfachilik, havaskorlik teatri.*

Аннотация: *В статье анализируются культурные процессы, происходившие в Хорезмской Народной Советской Республике в 1920–1924 годах, в частности, становление и развитие театрального и музыкального искусства. Освещается также создание театральных коллективов современного типа, самодеятельных кружков, музыкальных ансамблей и культурно-просветительских учреждений.*

Ключевые слова: *Хорезмская Народная Советская Республика, театральное искусство, музыкальное искусство, национальные культурные традиции, дастанное искусство, халфачилик, самодеятельный театр.*

Abstract: *This article analyzes the cultural processes that took place in the Khorezm People's Soviet Republic in 1920–1924, with particular attention to the formation and development of theatrical and musical arts. It also examines the establishment of modern-type theater groups, amateur artistic circles, musical ensembles, and cultural and educational institutions.*

Keywords: *Khorezm People's Soviet Republic, theatrical art, musical art, national cultural traditions, dastan performance, halfachilik, amateur theater.*

XX asrning 20-yillari O'zbekiston, xususan, Xorazm madaniy hayoti tarixida murakkab va ziddiyatli davrlardan biri hisoblanadi. Bu davrda ijtimoiy-siyosiy tuzumning o'zgarishi, yangi davlat boshqaruv tizimining shakllanishi va sovet mafkurasining asta-sekin joriy etilishi madaniyat va san'at sohalariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, teatr, musiqa, ommaviy tomosha va madaniy-ma'rifiy tadbirlar yangi mazmun bilan boyib bordi. Yangi shakldagi madaniy muassasalar va sahna san'atining rivojlanishida asrlar davomida shakllangan mahalliy xalq madaniyati, an'anaviy ijrochilik, dostonchilik, xalfachilik, musiqa va tomosha san'ati muhim asos bo'lib xizmat qildi.

Xorazmda teatr va sahna san'atining shakllanishi, bir tomondan, milliy madaniy an'analar bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, yangi siyosiy-ijtimoiy muhit ta'sirida kechdi. Shu jihatdan, XX asrning 20-yillarida Xorazmda kechgan madaniy jarayonlarni o'rganish nafaqat milliy teatr tarixining dastlabki bosqichlarini, balki an'anaviy madaniyatning yangi ijtimoiy sharoitda qanday o'zgarganini ham anglash imkonini beradi.

Ushbu davrda Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR) hududida zamonaviy ko‘rinishdagi teatr tuzilmalarini shakllantirishga harakatlar boshlandi. Yangi teatr jamoalari, musiqiy to‘garaklar va havaskorlik uyushmalarining tashkil etilishi sahna san’atining tashkiliy asoslarini mustahkamladi. Shu bilan birga, teatr va musiqa madaniy-ma’rifiy faoliyat vositasi sifatida qaralib, ulardan aholi o‘rtasida yangi siyosiy g‘oyalarni targ‘ib qilishda ham foydalanildi. Demak, mazkur davr sahna san’ati taraqqiyotida ikki jarayon milliy-badiiy an’analarning davomiyligi va yangi mafkuraviy-madaniy talablarning joriy etilishi o‘zaro uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ldi.

Xorazm madaniy hayotida 1920–1924-yillarda yuz bergan ushbu o‘zgarishlar keyinchalik O‘zbekistonda professional teatr va musiqa san’atining shakllanishi uchun muayyan tashkiliy va ijodiy zamin yaratdi. Shu sababli mazkur davrni milliy sahna san’ati tarixida o‘tish va transformatsiya jarayonlari kechgan muhim bosqich sifatida baholash mumkin.

XXSRda bu davrdagi madaniy hayotning rivojlanishida asrlar davomida mukammallashib borgan xalq madaniyati va san’atining roli katta bo‘lgan. Xorazmda 1920-yilda zamonasiga mos ko‘rinishdagi havaskor yoshlardan iborat teatr tashkil etish harakatlari boshlangan. Hamza Hakimzoda Niyoziy 1921-yilda Xorazmga borgach, ushbu teatr uning rahbarligida tashkil etiladi [1.118].

Hukumat qaramog‘idagi mazkur teatrning moddiy ta’minoti XXSR tomonidan nazoratga olingan. O‘sha vaqtda Xorazmda madaniyat muassasalarini tashkil etishda hukumat tarkibida faoliyat olib borgan Yunus Yusupovning xizmatlari katta bo‘lgan. Xiva davlat teatri tashkil etilgach, u bir qancha asarlarni sahnalashtirib, xalqqa namoyish etgan. Xususan, 1924-yil 19-aprelda Xo‘jaylida tashkil etilgan teatrda “Qalmoq” nomli spektakl namoyish etilgan [1.120]. Xonlik tuzumi tugatilib, yangi hukumat tuzilishi teatr asarlarida ham aks etgan. Teatr a’zolaridan biri bo‘lmish Samandar Saroymonovning ana shu jarayonlardagi ishtiroki va jasorati teatr ishtirokchilari tomonidan sahnalashtirilib, namoyish etilgan.

Xorazmda avvaldan mavjud bo‘lgan dostonchilik, xalfachilik kabi an’anaviy san’at turlari ham o‘z faoliyatini davom ettirdi. Bu holat yangi teatr madaniyatining shakllanishi butunlay tashqi ta’sir asosida emas, balki mahalliy badiiy tajriba va an’analar bilan ham uzviy bog‘liq holda kechganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, musiqa, qo‘shiq, raqs va og‘zaki ijod namunalari yangi sahna ko‘rinishlarining mazmun va ijro uslubiga ta’sir ko‘rsatgan.

Biroq XXSR hukumati milliy hukumat sifatida faoliyat yuritgan bo‘lsa-da, bolsheviklar tomonidan amalga oshirilayotgan siyosat bu yerdagi madaniy hayotga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Bolsheviklar hukumati 1920-yil boshlarida Malishev rahbarligidagi savdo va madaniy karvonni Xorazmga yubordi. Ushbu karvon bilan birga tatar aktyorlaridan tuzilgan teatr jamoasi hamda kinochilar ham borgan edi [2.92]. U keyinchalik Turkiston ASSRda tashkil etilgan agitpoezd bilan almashtirildi. Targ‘ibot poezdi yil davomida Xorazm hududi bo‘ylab kitob, jurnal va gazetalar tarqatdi.

Ma’lumotlardan ko‘rinishicha, mazkur tadbirlar doirasida ma’ruzalar o‘qilib, konsert va spektakllar namoyish etilgan. Bunday madaniy-targ‘ibot tadbirlari orqali aholini bolsheviklar siyosati bilan tanishtirish va yangi siyosiy g‘oyalarga jalb qilish maqsad

qilingan. Shu tariqa sahna san’ati nafaqat estetik va madaniy ehtiyojlarni qondirish, balki siyosiy-mafkuraviy ta’sir vositasi vazifasini ham bajara boshlagan.

1920-yil 12-fevralda Xorazm sahnasida Zakaspiy frontining siyosiy bo‘limi orqali yuborilgan tatar teatr jamoasi tomonidan “Birinchi teatr” nomli pyesa namoyish etildi. 1921-yilda Xorazmda musulmon (tatar) va rus badiiy havaskorlar jamoasi faoliyati yo‘lga qo‘yilgan edi. Rossiyadan kelgan 19 ijodiy xodim tarkibida rassom, pianinochi va aktyorlar ham bo‘lgan. Shu yilning o‘zida havaskorlar truppasi tomonidan 6 ta teatr namoyishi va 3 ta konsert tashkil etilgan [3.170].

Targ‘ibot uchun yuborilgan san’at jamoalari XXSR Qizil armiya siyosiy boshqarmasi, Turkfront hamda aholidan olingan yordam asosida faoliyat olib borgan. Arskiy rahbarligidagi musulmon jamoasi asosan tatarlardan tuzilgan bo‘lib, 1923-yilga qadar Xorazmdagi siyosiy-madaniy targ‘ibot ishlariga jalb etilgan. Baxmetov boshchiligidagi rus guruhi esa 1922-yilning birinchi yarmiga qadar Xorazmda faoliyat ko‘rsatgan. Tatar artistlari yordami va havaskor yoshlarning tashabbusi bilan 1921-yilda “Sayyora” nomli musiqali drama to‘garagi tashkil etilgan.

Ushbu to‘garak dastlab Xivadagi 3-bolalar uyida faoliyatini boshlagan bo‘lsa, 1921-yil 10-iyuldan Nurillaboy saroyida faoliyat olib borgan. Mazkur musulmon va rus truppalari qoshida Safar Mug‘anniy boshchiligida musulmon, Bikovskiy rahbarligida rus musiqa ansambllari tashkil qilingan [4.21].

Hamza Hakimzoda Niyoziyning 1921–1924-yillarda Xorazmda bo‘lishi bu yerda san’atning rivojlanishiga katta turtki berdi. U Nurillaboy saroyida faoliyat olib borayotgan havaskor drama to‘garagiga musiqachi, qo‘shiqchi va o‘yinchilarni jalb etgan. Hamza Hakimzoda Niyoziy to‘garak a’zolarining badiiy saviyasini oshirish maqsadida musiqa maktabini ham tashkil etgan. (Nurillaboyda tashkil etilgan musiqa maktabida duxovoy musiqa; qilli musiqa; milliy musiqa; ovoz mashqi; nota; royal va pianino; partiya tarixidan ma’ruza kabi fanlardan dars berilgan.)

Maktabda duxovoy musiqa, torli musiqa, milliy musiqa, ovoz mashqi, nota, royal va pianino kabi fanlar bilan bir qatorda partiya tarixi bo‘yicha ma’ruzalar ham o‘qitilgan.

Hamzaning ushbu faoliyatini ikki jihatdan baholash mumkin. Birinchidan, u mahalliy yoshlarni sahna san’atiga jalb etish, ularning ijrochilik mahoratini oshirish va musiqiy ta’lim asoslarini joriy etish orqali professional sahna uchun kadrlar tayyorlashga zamin yaratdi. Ikkinchidan, o‘sha davr siyosiy muhiti ta’sirida madaniy-ma’rifiy muassasalar faoliyatida sovet mafkurasiga oid targ‘ibot ishlari ham mavjud bo‘ldi.

Hamza XXSRdagi madaniy jarayonlar rivojiga hissa qo‘shish uchun Turkiston siyosiy bo‘limi ixtiyoridagi Muhammadjon Tojizoda rahbarligidagi o‘zbek truppasini yordamga chaqirdi. Bu aktyorlar jamoasi 1922-yil may oyiga qadar Xorazmda bo‘lib, shu davrda Hamza tomonidan yaratilgan pesalar xalqqa namoyish etildi. (Hamza qalamiga mansub “Farg‘ona fojealari”, “Boy ila xizmatchi”, “Tuxmatchilar jazosi”, “Kim to‘g‘ri”, “Xon zulmi” kabi pyesalar namoyish etilgan.) Ushbu sahnalashtirilgan pesalarda xonlik va mamlakatdagi amaldorlar tanqid ostiga olingan. Shu bois ayrim pesalarning sahnaga qo‘yilishi xalqning ba’zi vakillari e’tiroziga sabab bo‘lgan. Shunga qaramay, 1922-yil aprelida Hamza Hakimzoda Niyoziy 72 kishidan iborat Xiva teatr truppasini tuzdi [1.173].

Shunday qilib, 1920-yillarning dastlabki davrida Xorazm sahna san’atida tashkiliy, ijodiy va repertuar o‘zgarishlari bir vaqtning o‘zida kechgan. Havaskorlik to‘garaklarining tashkil etilishi, musiqa maktablari va ansambllarning faoliyat boshlashi, mahalliy ijodkorlarning sahna jarayoniga jalb qilinishi keyinchalik professional teatr san’atining shakllanishi uchun muhim omillardan biri bo‘ldi. Ayni vaqtda sahna repertuaridagi o‘zgarishlar teatrning jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga munosabat bildiruvchi madaniy institut sifatida shakllanayotganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, 1920–1924-yillarda Xorazmdagi madaniy hayot, xususan, teatr va musiqa san’atida yuz bergan o‘zgarishlar murakkab va ko‘p qirrali jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Bir tomondan, asrlar davomida shakllangan mahalliy madaniy an’analar dostonchilik, xalfachilik, milliy musiqa, qo‘shiq va raqs san’ati yangi ijtimoiy sharoitda o‘z mavqeini saqlab qoldi. Ikkinchi tomondan, yangi davlat tizimi ta’sirida zamonaviy teatr jamoalari, musiqiy to‘garaklar, havaskorlik uyushmalari va madaniy-ma’rifiy muassasalar tashkil etila boshladi.

Mazkur davrda teatr san’atining vazifasi ham kengaydi. U an’anaviy badiiy merosni sahnada namoyon etish bilan birga, aholining madaniy ehtiyojini qondirish, savodxonlik va ma’rifatni oshirish hamda yangi siyosiy-mafkuraviy qarashlarni targ‘ib qilish vositasi sifatida ham faoliyat ko‘rsatdi. Shu nuqtai nazardan, Xorazmdagi teatr jarayonini milliy sahna san’atining oddiy rivojlanishi emas, balki an’anaviy madaniy meros, yangi teatr shakllari va sovet mafkuraviy siyosati o‘zaro ta’sir qilgan transformatsion jarayon sifatida ko‘rish mumkin.

Hamza Hakimzoda Niyoziyning Xorazmdagi faoliyati esa ushbu jarayonning muhim bosqichlaridan biri bo‘ldi. Uning teatr to‘garaklarini shakllantirish, ijodkor yoshlarni jalb etish, musiqa ta’limini yo‘lga qo‘yish va sahna asarlarini namoyish etish borasidagi ishlari keyingi teatr jarayonlari uchun tashkiliy va ijodiy zamin yaratdi.

Shu bilan birga, 1920-yillarning boshlarida Xorazmda faoliyat ko‘rsatgan tatar va rus teatr jamoalari, musiqa ansambllari hamda mahalliy havaskorlar ishtirokidagi to‘garaklar sahna san’atida yangi ijro shakllarining qaror topishiga ta’sir ko‘rsatdi. Bu jarayon milliy sahnaning repertuari, ijrochilik uslubi va tashkiliy tuzilmasida sifat o‘zgarishlarini yuzaga keltirdi.

Eng muhimi, mazkur davrda milliy sahna san’ati o‘zining keyingi taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan tashkiliy va ijodiy tajribani to‘pladi. Shu ma’noda, XXSR davri Xorazm madaniy hayotidagi teatr jarayonlari keyinchalik O‘zbekistonda professional teatr san’atining shakllanishiga olib kelgan muhim tarixiy bosqichlardan biri bo‘lib, milliy madaniy an’analarning yangi ijtimoiy-siyosiy sharoitda transformatsiyalanishi va davomiyligini o‘zida aks ettirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qilichev T. Xorazm xalq teatri. Toshkent, 1988.
2. Бильялов Г. Культура и просвещение в Хорезмской народной Советской республики 1920-1924 гг. –Ташкент: Фан, 1966.
3. Каримова Р. Хорезмский танец. Ташкент, 1975.

4. Amanbayev B. Teatr-fidoiylar maskani Xorazm viloyati musiqali drama teatri tarixi va buguni haqida. Urganch Ogahiy 2023.
5. Isokova M. Xorazm etnomadaniyati va evropa rusumidagi teatrning rivojlanishi monografiya. Toshkent Donishmand ziyo 2024.